Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321032

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA LOGISTIKA XARAJATLARINI SUN'IY INTELLEKT ORQALI KAMAYTIRISH

Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li
Farg'ona politexnika instituti, "Iqtisodiyot" kafedrasi, magistranti
zokirjonovasadbek628@gmail.com

Annotatsiya. Sanoat ishlab chiqarishida xarajatlarni minimallashtirish doimiy muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Bu jarayonda logistika xarajatlari katta o'rin tutadi, chunki mahsulotning talab qilingan joyga yetib borishi va ta'minot zanjirining har bir bosqichi puxta boshqaruvni talab qiladi. Logistika jarayonlari qanchalik samarali va tejamkor bo'lsa, ishlab chiqarish tannarxi shunchalik pasayadi, va bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki raqobatbardoshlikni ham kuchaytiradi. Bugungi kunda logistika jarayonlarini optimallashtirishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. SI texnologiyalari orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, jarayonlarni avtomatlashtirish va real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkoniyati yaratiladi, bu esa ishlab chiqarish korxonalari uchun logistika xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Logistika xarajatlari, Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, Ta'minot zanjiri optimallashtirish, Ishlab chiqarish samaradorligi, Transport xarajatlarini kamaytirish, O'zbekistonda logistika, Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi, Inventarizatsiya jarayoni avtomatlashtirish, PQ-4996 va PQ-358-sonli qarorlar, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Logistika tizimlarini raqamlashtirish

Logistika, odatda, xom ashyo, mahsulotlar va xizmatlar ta'minoti va yetkazib berilishi bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar orasida materiallar, ishlab chiqarish resurslari va tayyor mahsulotlar zanjiri mavjud. Ishlab chiqarish jarayonlarida har bir bosqichda logistika xarajatlari yuzaga keladi. Bular tashish, saqlash, inventarizatsiya va ta'minot zanjirini boshqarish xarajatlarini o'z ichiga oladi. Qolaversa, logistika xarajatlarining umumiy tannarxga ta'siri katta. Agar logistika jarayonlari samarali tashkil etilmasa, mahsulot tannarxi oshib, ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Shu sababli, logistika xarajatlarini optimallashtirish va minimallashtirish ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi

2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli qaror bilan, O'zbekiston "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat va moliyaviy xizmatlarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etishni boshladi. Strategiyaning asosiy maqsadlari — davlat xizmatlarining 10% ini sun'iy intellekt yordamida ko'rsatish, katta hajmdagi ma'lumotlar bazalarini yaratish, va sun'iy intellekt asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmini oshirishdir. Bu jarayonlar Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan muvofiqlashtirilib, moliyalashtirish Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. PQ-4996-sonli qarorda SI texnologiyalari yordamida davlat xizmatlarini samaraliroq qilib, xarajatlarni qisqartirishni maqsad qilgan. SI asosida yangi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlarni moliyalash, va texnologik infratuzilmani rivojlantirish vazifalari belgilangan. Bu ishlarni Innovatsion rivojlanish vazirligi boshqaradi, va moliyalashtirish Jamg'arma mablag'lari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, qaror SI texnologiyalari orqali masofaviy biometrik identifikatsiya tizimlarini ham joriy etishni nazarda tutadi. Shu orqali davlat xizmatlari tezkor va arzon bo'lishi, hamda fuqarolarga qulaylik yaratish ko'zda tutilgan[1].

Bundan tashqari, 2024-yilning oktyabr oyida tasdiqlangan PQ-358-sonli qaror bilan sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi qabul

Published: 23.12.2024
Cite this article: Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li (2024). Sanoat ishlab chiqarishda logistika xarajatlarini sun'iy intellekt orqali kamaytirish. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321032
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

qilindi. Ushbu strategiya doirasida davlat xizmatlari, energetika sektori, va transport tizimida sun’iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirish, xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, katta ma'lumotlar (big data) bazalarini yaratish rejalashtirilgan. Ushbu strategiya Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi va moliyaviy manbalar Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratiladi.[2]

Sun'iy intellekt texnologiyalari so‘nggi yillarda ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini optimallashtirishda katta rol o‘ynay boshladi. Sun'iy intellekt, mashina o‘rganish (machine learning), katta ma'lumotlar tahlili (big data analytics) va avtomatlashtirish kabi vositalar orqali logistika jarayonlarini boshqarishning samaradorligini oshiradi. Sun'iy intellekt yordamida logistika jarayonlari oldindan prognozlanishi va optimallashtirilishi mumkin.

Misol uchun, transport xarajatlarini kamaytirish uchun sun'iy intellekt yordamida eng tejamkor yo‘nalishlar aniqlanadi. Amazon va Walmart kabi kompaniyalar sun'iy intellektni talabni prognozlashda, yetkazib berish vaqtlarini optimallashtirishda va tashish jarayonlarini avtomatlashtirishda qo‘llamoqda. UPS kompaniyasi, masalan, logistika jarayonlarini avtomatlashtirish va yo‘nalishlarni optimallashtirish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi, bu esa xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

AQSh, Germaniya, Yaponiyada va boshqa rivojlangan davlatlarda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar logistika jarayonlarida samarali qo‘llanilmoqda. Masalan, AQShda Amazon, Walmart va FedEx kabi kompaniyalar sun'iy intellekt yordamida global logistika zanjirlarini optimallashtirishda muvaffaqiyatli tajriba orttirgan. Ular, o‘z navbatida, transport xarajatlarini kamaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqishda ilg‘or pozitsiyani egallagan.

Yaponiyada, sun'iy intellekt robototexnika va avtomatlashtirish jarayonlarida ishlatilmoqda. Bu, logistika jarayonlarining yanada samarali bo‘lishiga olib kelmoqda. Germaniyada esa sun'iy intellekt orqali yetkazib berish tarmog‘ining har bir bosqichi optimallashtirilgan, bu esa umumiy xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

O‘zbekistonda sun'iy intellekt (SI) yordamida logistika xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari katta va turli sohalarda o‘z aksini topmoqda. Yuqorida biz mamlakatda bu borada amalga oshirilayotgan bir nechta tashabbuslar va strategiyalarni eslab o‘tdik. Qolaversa, Innovatsion rivojlanish vazirligi orqali amalga oshirilayotgan ilmiy va texnologik tadqiqotlar, sun'iy intellekt asosidagi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, SI texnologiyalarini logistika tizimlarida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, sun'iy intellekt orqali ta'minot zanjirlarini optimallashtirish, omborlash va inventarizatsiya jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish mumkin.

SI yordamida logistika jarayonlarida ta’minot zanjirlarini yaxshilash, transport yo‘nalishlarini optimallashtirish va inventarizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin. Shu bilan birga, SI yordamida katta ma'lumotlar (big data)ni tahlil qilish, xarajatlarni prognozlash va samaradorlikni oshirish imkoniyatlari mavjud. Masalan, Amazon, Walmart va UPS kabi kompaniyalar transport xarajatlarini kamaytirish va yetkazib berish tizimlarini samarali boshqarish uchun SI texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llashmoqda. O‘zbekistonda ham bu kabi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali mamlakatning logistika tizimi yanada raqobatbardosh va samarali bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli qarori.
2. O‘zbekistonda 2024-yil oktyabr oyida tasdiqlangan PQ-358-sonli qaror

3. Logistics Management. (2020). "How Amazon uses AI to streamline its supply chain and reduce logistics costs."
4. Chen, Y., & Zhao, L. (2021). Artificial Intelligence and its Impact on Logistics and Supply Chain Management: A Review.
5. University of Applied Sciences, Berlin. (2022). AI in logistics: Global case studies.
6. Silva, M., & Sampaio, P. (2020). Artificial Intelligence and Big Data in Supply Chain Management: Revolutionizing logistics.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ

Бекмуродова Ф. А.
Университет мировой экономики и дипломатии, PhD
Максумова О. Д.
магистрант Международной исламской академии

Аннотация. Туризм служит важным катализатором регионального развития, способствуя экономическому росту, укреплению социальных структур и сохранению культурного наследия. В данной статье рассматриваются стратегии эффективного использования туристического потенциала для стимулирования регионального прогресса. На основе анализа научных источников выявлены ключевые аспекты, такие как комплексная оценка туристических ресурсов, развитие инфраструктуры, вовлечение местного сообщества, устойчивые практики и интеграция политики. Обсуждение подчеркивает необходимость комплексного подхода, который согласует туристические инициативы с целями регионального развития, обеспечивая экономическую выгоду при сохранении экологических и культурных ресурсов.

Ключевые слова: туристический потенциал, региональное развитие, устойчивый туризм, вовлечение сообщества, развитие инфраструктуры, интеграция политики.

Введение

Туризм играет ключевую роль в социально-экономическом развитии регионов, способствуя росту доходов, созданию рабочих мест и укреплению культурного наследия. В современном мире туристический потенциал стал важным инструментом, который помогает регионам развивать свои конкурентные преимущества. Однако для его эффективного использования требуется стратегическое планирование, внедрение устойчивых практик и поддержка местных сообществ.

На сегодняшний день успешные примеры реализации туристического потенциала можно найти во многих странах. Например, экотуризм в Камбодже, винный туризм в Тоскане и зимний туризм в Лапландии демонстрируют, как туристическая деятельность может приносить значительные экономические и социальные выгоды. Тем не менее, для многих регионов остается нерешенным вопрос: как наилучшим образом использовать имеющиеся природные, культурные и экономические ресурсы для развития туризма, минимизируя при этом экологическое воздействие?